

O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHINING DEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Safaraliyev Shoakbar Farhod o'g'li

Anatatsiya:

Ushbu tezisda O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishi, demografik xususiyatlar, mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ta'lim tizimi, kasb-hunar sohasining rivojlanishi va inson manfaatlarini ta'minlash jarayoni haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, demografiya, aholi bandligi, ta'lim, qonunchlik.

O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishi davrida demografik xususiyatlarning o'zgarishi katta ahamiyatga ega. Bu o'zgarishlar, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, ta'lim, kasb-hunar sohasini va inson manfaatlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Aholi bandligiga ko'maklashish dasturlarini samaradorligini oshirish, mehnat bozorini aktivlash bo'yicha dasturlarni o'zaro muvofiqlashtirish va mehnatga layoqatli aholini qo'llab quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Aholini qulay shart-sharoitga ega bo'lgan rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Joriy etilgan strategiyadan ko'zlangan natijalarga erishish 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish milliy maqsadi va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi-bu inson manfaatlarini, farovonligini, munosib turmush darajasini ta'minlash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo'lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Chunki mamlakatimizda yaratilayotgan ish o'rinlarining katta qismi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi. Iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq. XXI-asrda dunyo bo'ylab iqtisodiy taraqqiyot uchun inson kapitali muhim omil bo'lib, uni rivojlantirish, ta'limning sifatini oshirish, mutaxassislarni tayyorlash har qanday mamlakat oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Hozirgi davrda dunyo bo'yicha yetakchi davlatlar tajribasi faqat inson kapitalini to'laqonli rivojlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishini ta'minlashda demografik xususiyatlar muhim ahamiyatga ega:

- mehnat qonunchiligi;
- ishga layoqatli aholi;
- ta'lim;
- mehnat bozori;
- mehnat bozorining rivojlanishi.

O'zbekistonda mehnat bozori rivojlanishini ta'minlashda muhim demografik xususiyatlar to'g'risida sharoitdan hamda vaziyatdan kelib chiqqan holda ya'na ko'plab misollar keltirish mumkin.

Mehnat qonunchiligi- O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'g'risidagi qonunchilik, jamoa kelishuvlari, shuningdek jamoa shartnomalari va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.¹

Ishga layoqatli aholi- O'zbekistonda mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi.

Ta'lim-mehnat resurslari soni miqdoriy ifoda bo'lsa, mehnat yoshidagi aholining bilim saviyasi, malakasi, kasbiy mahorati va ishbilarmonligi uning sifatini yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatda yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash uchun ta'limga alohida e'tibor berish zarur. Bugungi kunda esa O'zbekistonda ta'lim sohasi katta o'zgarishlar olib borilmoqda.

Mehnat bozori- ish kuchi oldi-sotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o'rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning sohibi tomonidan bozorga taklif etiladi. O'zbekistonda aholini rasmiy ish bilan taminlash maqsadida davlat tomonidan ichki va tashqi mehnat bozorlariga ishchilarni yetkazib berish uchun firmalar, tashkilotlar va agentliklar tashkil etilgan.

Mehnat bozorining rivojlanishi-O'zbekistondagi mehnat bozori rivojlanishi regional tartibda amalga oshiriladi. Hududlar o'rtasidagi farq va tajribani hisobga olgan holda, har bir hududda o'ziga hos iqtisodiy yangilanishlar hamda mehnat bozorlari yanada rivojlantirilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu faktlar asosida, O'zbekistondagi mehnat bozori rivojlanishining demografik xususiyatlari bo'yicha qisqacha ma'lumotga ega

¹ O'zbekiston respublikasining mehnat kodeksi 1-modda

bo'lish mumkin. Bu demografik xususiyatlar O'zbekistondagi mehnat bozori rivojlanishining muhim komponentlarini tashkil etadi. Har birini o'zining o'zgarishlarni tahlil qilish va ularga mos keluvchi siyosatlar hamda strategiyalar olib borish rivojlanish jarayonini mustahkamlashda muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi.
3. Sh.R.Xolmo'minov Mehnat bozori iqtisodiyoti Toshkent–2021
4. Xalqaro Mehnat Tashkiloti: Trade and decent work: Handbook of assessment methodologies